



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2025-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2025

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|----------------|--|
| 1. | B.B. Ma'murov | - Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais; |
| 2. | Z.M. Muqimov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. | G.R. Akramova | - Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 4. | X.A. Xaitov | - Tillar fakulteti dekani, a'zo; |
| 6. | U.S.Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 7. | D.B.Axmedova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 8. | G.B.Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.R.Mirxanova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.A.Saidova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 11. | Y.U.Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 12. | Sh.Sh.Nizomova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 13. | N.H.Hojiyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 14. | M.U.Usmonova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | N.A.Bafoyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | N.O. Avazova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 17. | S.T. Latipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo |

ILMIY ANJUMANNING TASHKILIIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|-----------------|---|
| 1. | M.M. Bafayev | - O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais; |
| 2. | M.L. Umedjanova | - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini; |
| 3. | U.S. Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 4. | F.R.Rustamov | Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari |
| 5. | L.F. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 6. | M.Y. Ro'ziyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 7. | Sh.M. Istamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 8. | M.B. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.B. Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.R. Xalilova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 11. | M.U. Usmonova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 12. | F.K. Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 13. | N.N. Mirjonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 14. | M.Y. Latifova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | M.A. Tilavova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | M.V. Jabborova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo. |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor
F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

BADIY OBRAZ TURLARI VA ULARNING O'ZBEK NASRIDA IFODALANISH XUSUSIYATLARI

Istamova Shohida Maxsudovna,
f.f.f.d. (PhD), professor
Buxoro davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Mazkur maqolada badiiy obraz tushunchasining nazariy asoslari, uning turlari hamda o'zbek nasrida ularning ifodalanish xususiyatlari tahlil etilgan. Adabiyotshunoslikda obrazning individual, tipik, ramziy va kollektiv ko'rinishlari ajratilib, ularning estetik, psixologik va ijtimoiy ma'nolari ochib beriladi. Maqolada obraz turlarining zamonaviy o'zbek nasrida yangicha talqinda shakllanishi, inson ruhiyatini ifodalashdagi psixologik chuqurlik va ramziy qatlamlarning kuchayishi ilmiy asosda izohlangan. Ushbu maqola natijalari badiiy tafakkur evolyutsiyasini va o'zbek nasrida obrazlar tizimining yangilanish jarayonini yoritishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: badiiy obraz, individual obraz, tipik obraz, ramziy obraz, kollektiv obraz, o'zbek nasri, estetik tahlil.

Adabiyot insoniyat tafakkurining badiiy in'ikosi sifatida jamiyat hayotini, inson ruhiyatini va davr muammolarini obrazlar tizimi orqali aks ettiradi. Badiiy obraz adabiyotning markaziy kategoriyasi bo'lib, u san'atning o'ziga xos tili — timsollar, xarakterlar, holatlar orqali hayotni estetik idrok etish vositasidir. Har bir davr adabiyoti o'z obrazlar tizimini yaratadi, u orqali milliy ruhiyat, davr falsafasi va ijtimoiy ong ifodalanadi. Shu bois badiiy obrazlar tahlili — adabiyotshunoslikda eng muhim nazariy masalalardan biridir.

Badiiy obraz tushunchasi qadimdan estetik tafakkur markazida bo'lgan. Aristotel "Poetika" asarida san'atning mohiyatini taqlid (mimesis) orqali anglatgan bo'lsa, Sharq mutafakkirlari, xususan, Alisher Navoiy "Mezon ul-avzon" va "Majolis un-nafois" asarlarida obrazning ma'naviy-estetik ildizlarini ruh, muhabbat va kamolot g'oyalari bilan bog'laydi. Rus adabiyotshunosligida V. Belinskiy, Chernishevskiy, M. Baxtin singari olimlar obrazni badiiy tafakkurning asosiy ifoda shakli deb ta'riflaganlar.

Bugungi kunda badiiy obrazlarni turlari asosida o'rganish — o'zbek nasrining rivojlanish qonuniyatlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Chunki individual, tipik, ramziy va kollektiv obrazlar orqali yozuvchi nafaqat o'z estetik qarashlarini, balki jamiyatning ijtimoiy-psixologik holatini ham aks ettiradi. Ayniqsa, zamonaviy o'zbek nasrida obrazlarning psixologik chuqurligi, ichki monolog, tush motivlari, ramziy qatlamlarning kuchayishi adabiy tafakkur evolyutsiyasining yorqin belgisi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shundan kelib chiqib, ushbu maqolada badiiy obraz tushunchasining nazariy asoslari, uning asosiy turlari va o'zbek nasrida ularning ifodalanish xususiyatlari tahlil qilinadi.

Badiiy obraz yozuvchining hayot haqidagi tasavvurlari, dunyoqarashi, hissiy va aqliy idrokining badiiy ifodasi bo'lib, asar mazmunining asosiy tashuvchisi hisoblanadi. U orqali yozuvchi nafaqat voqelikni aks ettiradi, balki uni estetik jihatdan qayta yaratadi, unga yangi ma'no va ruh beradi. Shu ma'noda, obraz adabiyotda hayotni "ko'chirish" emas, balki "badiiy talqin etish" jarayonidir.

Sharq estetik tafakkurida obraz tushunchasi chuqur ildizlarga ega. Alisher Navoiy "Majolis un-nafois"da shoir obraz yaratishda "so'z bilan ruhni uyg'unlashtirishi" zarurligini ta'kidlaydi. Demak, Sharq adabiy tafakkurida obraz nafaqat tashqi shakl, balki ma'naviy mazmun, ruhiy go'zallikni ifodalovchi timsoldir. Bu jihat, ayniqsa, o'zbek adabiyotida kuchli namoyon bo'ladi: unda obrazlar orqali xalq ruhi, milliy qadriyatlar, insoniy orzu-intilishlar ifodalanadi.

O'zbek adabiyotshunosligida badiiy obraz nazariyasini shakllantirishda A. Fitrat, I. Sultonov, T. Boboyev, S. Mamajonov, H. Umurov, D. Qur'onov, A. Ulug'ov, B. Karimov kabi

olimlarning hissasi katta. Masalan, A. Ulug'ov obrazni muallifning hayotiy haqiqatni badiiy haqiqat darajasiga ko'tarish vositasi sifatida talqin etadi. Unga ko'ra, badiiy obraz nafaqat xarakter yaratadi, balki g'oyaviy mazmunni ham tashiydi. R. Qo'chqorov esa obrazning psixologik tabiatiga urg'u berib, uni "insonning ichki dunyosini ochuvchi estetik hodisa" sifatida baholaydi.

Obrazning mohiyatini anglash uchun uning **ikki tomonlama tabiatiga** e'tibor qaratish lozim: birinchidan, u **hayotiy asosga** ega, ya'ni muayyan ijtimoiy realikka tayanadi; ikkinchidan, u **badiiy-estetik qayta ishlov** natijasidir. Shu sababli har bir obrazda real hayot unsurlari bilan yozuvchining individual dunyoqarashi, tasavvuri va badiiy uslubi uyg'unlashadi. Masalan, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidagi Otabek obrazi o'z zamonining real ijtimoiy tipi bo'lishi bilan birga, yozuvchining ideal inson haqidagi estetik qarashini ham mujassamlashtiradi.

Badiiy obrazlar o'z tabiatiga ko'ra **ko'p qatlamli** hodisadir. Ularning tashqi qatlamida voqealar, xatti-harakatlar, munosabatlar tizimi yotgan bo'lsa, ichki qatlamida yozuvchining ma'naviy-estetik g'oyalari, ramziy ma'nolari mujassam bo'ladi. Ayniqsa, zamonaviy o'zbek nasrida obrazlarning ichki monologi, tush tasvirlari, psixologik tahlil unsurlarining kuchayishi badiiy obrazni yangi bosqichga olib chiqdi. Nazar Eshonqulning "Maymun yetaklagan odam", Abduqayum Yo'ldoshning "Puankare" kabi hikoyalarda obrazlar tashqi voqelikdan ko'ra, ichki kechinmalar, ruhiy to'qnashuvlar orqali ochiladi.

Demak, badiiy obraz — bu real hayot manzaralarini estetik anglash natijasida tug'iladigan timsol bo'lib, u adabiyotning eng asosiy estetik birligi sanaladi. Har bir asarda obrazlar tizimi yozuvchining dunyoqarashi, ijtimoiy pozitsiyasi va badiiy metodini ifodalaydi. Shu jihatdan, obraz tahlili orqali nafaqat badiiy asarning g'oyaviy mazmunini, balki adabiyotning umumiy taraqqiyot yo'nalishini ham aniqlash mumkin.

Badiiy obrazlar o'z tabiati va vazifasiga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi. Adabiyotshunoslikda ular odatda **individual**, **tipik**, **ramziy** va **kollektiv** obrazlar sifatida tasniflanadi. Ushbu tasnif har bir obrazning adabiy jarayondagi funksiyasini, yozuvchi estetik idealining ifodasini aniqlash imkonini beradi.

Individual obraz yozuvchining badiiy tasavvurida shakllanib, o'ziga xos xarakter, ruhiy olam va hayotiy muhit bilan ajralib turadi. U insonning ichki dunyosini, hissiyotlarini, shaxsiy iztiroblarini yoritadi. O'zbek nasrida individual obraz yaratish san'atining yuksak namunalarini Odil Yoqubov, Erkin A'zam, Tog'ay Murod, Isajon Sulton asarlarida kuzatish mumkin. Masalan, Odil Yoqubovning "**Ulug'bek xazinasi**" romanidagi Mirzo Ulug'bek obrazi tarixiy shaxs bo'lishiga qaramay, muallif talqinida chuqur falsafiy, ruhiy va insoniy qatlamlar bilan boyitilgan. Ulug'bek – aql va e'tiqod, ilm va siyosat, ruh va jasorat o'rtaqidagi fojiali to'qnashuv timsolidir. Yozuvchi uni nafaqat olim sifatida, balki insoniy iztiroblarga to'la shaxs sifatida tasvirlaydi: bu esa individual obrazning ruhiy murakkabligini ifodalaydi.

Tipik obraz — ijtimoiy muhit, davr ruhini mujassamlashtirgan, ko'pchilik hayotiy xususiyatlarini umumlashtirgan obrazdir. O'zbek adabiyotida tipik obrazlar tizimini yaratishda Abdulla Qodiriy, Oybek, Said Ahmad, Shukur Xolmirzayev kabi yozuvchilar muhim o'rin tutadi. **Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar"** romanidagi Otabek obrazini o'zbek adabiyoti tarixidagi eng yirik tipik obraz sifatida e'tirof etish mumkin. U XIX asr oxiri Turkiston ijtimoiy hayotidagi yangi ziyolilar qatlamining vakili bo'lib, "eski" va "yangi" dunyo o'rtaqidagi ijtimoiy ziddiyatni o'z shaxsida mujassamlashtiradi. Otabek orqali yozuvchi nafaqat bir inson taqdirini, balki butun millatning uyg'unish davri ruhini ifodalaydi. Shuningdek, Oybekning "**Qutlug' qon**" romanidagi Yo'lchi ham o'z davrining tipik qahramoni bo'lib, uning harakati jamiyatdagi o'zgarishlarni, yangilanish jarayonini badiiy umumlashtirishga xizmat qiladi.

Ramziy obraz — badiiy asarda ma'lum bir g'oya, tushuncha yoki falsafiy mazmunni timsol orqali ifodalovchi obraz turidir. U voqelikni bevosita emas, balki majoziy, ramziy shaklda ifodalaydi. Zamonaviy o'zbek nasrida ramziy obrazlar tizimi ayniqsa kuchaygan.

Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" asaridagi "dala" ramzi esa Vatan, xalqning hayoti va mehnatining timsoli sifatida keltiriladi. Asardagi Dehqonqul obrazi inson va zamin o'rtasidagi ruhiy-axloqiy bog'liqlikni ifodalaydi. Ramziy obrazlar orqali yozuvchilar chuqur falsafiy va ma'naviy masalalarni yoritadilar. Bu turdagi obrazlarda tashqi voqelikdan ko'ra ichki ma'no ustuvor bo'ladi. Shu bois, ularni talqin qilish o'quvchidan ham estetik tafakkur, ramziy tafsirga tayyorgarlikni talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy obrazlarning turlari o'zaro aloqador holda asarning umumiy estetik butunligini tashkil etadi. Har bir tur o'ziga xos badiiy vazifani bajaradi: individual obraz — ruhiy murakkablikni, tipik obraz — ijtimoiy haqiqatni, ramziy obraz — falsafiy ma'noni, kollektiv obraz esa xalq ruhiyatini ifodalaydi.